

## SHUHRAT MATKARIMOVNING “INDAMAS” QISSASIDAGI DIALEKTIZMLAR

**Mashhura Qodirova**

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Dialektizmning adabiy til, badiiy asar va lingvopoetikada tutgan o‘rni ushbu maqolada asosiy o‘rganish obyektiga olindi. Xorazm adabiy muhitidagi badiiy asarlar tilida qo‘llanilgan dialektizmlar tahlil qilindi. “Indamas” qissasi tilshunoslik nuqtayi nazaridan til fragmentlariga asoslanib, tahlil qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** *dialektizm, lingvopoetika, fonetik lingvopoetika, leksik lingvopoetika.*

### ANNOTATION

*The role of dialecticism in literary language, artistic works and linguopoetics is the main object of study in this article. Dialectisms used in the language of artistic works in Khorezm literary environment were analyzed. The story "Indamas" was analyzed from the point of view of linguistics, based on language fragments.*

**Key words:** *dialectism, linguopoetics, phonetic linguopoetics, lexical linguopoetics.*

### АННОТАЦИЯ

*Роль диалектики в литературном языке, художественных произведениях и лингвопоэтике является основным объектом исследования в данной статье. Проанализированы диалектизмы, употребляемые в языке художественных произведений в литературной среде Хорезма. Рассказ «Индамас» проанализирован с точки зрения лингвистики на основе языковых фрагментов.*

**Ключевые слова:** *диалектизм, лингвопоэтика, фонетическая лингвопоэтика, лексическая лингвопоэтика.*

Shevalarni to‘plash va tavsiflash til tarixi, hozirgi adabiy til, shuningdek, boshqa masalalarga ham tegishli bo‘lgan xalq tarixi, etnografiyasi muammolarini o‘rganish uchun boy materialdir. Til tarixini o‘rganishda shevalar yozma yodgorliklar kabi muhim o‘rin tutadi. Ba‘zan shevalarda yozma yodgorliklarda ham kuzatilmaydigan arxaik-lingvistik xususiyatlar saqlanib qolgan.

Dialektizmlar – adabiy tildagi dialektlarning o‘ziga xos hududiy unsurlari sanaladi va tilshunoslikning barcha sohalari (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va boshqalar)ga taalluqlidir. Badiiy ijodda dialektizmlardan narsa, voqea va hodisaga mahalliy urg‘u berish maqsadida qo‘llaniladi, bundan tashqari personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. [O‘zME. Birinchi jild. Toshkent 2000.] Lahjalar nafaqat adabiy tilni, balki badiiy tilni ham boyitishga hissa qo‘shadi. Badiiy tilga shevalardan tortib turli lingvistik elementlarning kirib kelishi badiiy tilning lug‘at boyligini boyitadi. Dialektizmlarni o‘rganishga hali hamon ehtiyoj mavjud. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: “...o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish zarur” [Mirziyoyev.Sh.M. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. “O‘zbekiston ovozi”, 2019.] ligi haqidagi fikrlari e‘tiborlidir.

Atoqli o‘zbek adabiyotshunosi O.Sharafiddinov o‘zining “Adabiyot tildan boshlanadi” nomli maqolasida shunday yozadi: “Rangsiz tasviriy san‘at, ohangsiz musiqa bo‘lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo‘lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar.” [Sharafiddinov O., Adabiyot tildan boshlanadi // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 1986.] Darhaqiqat, badiiy tilda qo‘llanilgan dialektal elementlar – dialektizmlar badiiy tilni boyitish bilan birga turli uslubiy vazifalarni ham bajarishga xizmat qiladi. Yozuvchilar va shoirlar shevalarni so‘zlashuv nutqidan badiiy nutqqa o‘tkazishda vositachi bo‘ladilar. Dialektizmlar barcha adabiy janrlarda yozilgan asarlarda uchraydi. Nasriy asarlarda biz ularni ko‘proq uchratamiz. Shuhrat Matkarimov asarlari ham shu turkumdan. Shuhrat Matkarimovning badiiy asarlari faqat sheva materiallari bilan yuklangan emas, balki bu asarlarda yo‘l-yo‘lakay, turli uslubiy lahzalarda dialektizmlarga murojaat qilgan. U “Indamas” qissasida badiiy fikrini ifodalash uchun lahjalardan mohirona foydalangan. Quyidagi misollar orqali buni ko‘rishimiz mumkin: Ammo ishonsa, ishonmasa bu voqea sodir bo‘lgan edi: pismiq va qiltiriq bir odam, polvon va boy-badavlat bir odamni chalib tashlagan. Chalganda ham bungacha mingtasini bo‘g‘izlaganday ishini orqayin bajargan. O‘ta orqayin. Qassob jonivorni qanday maydalasa, u ham odamni shunday machalagan.

Bu yerda “qiltiriq” dialektizmi ishlatilgan bo‘lib, u adabiy tildagi ozg‘in so‘ziga nisbatan qo‘llanilgan. Sheva shaklini qo‘llash ma‘noni kuchaytitishga xizmat qilgan. “Chalib tashlamoq” iborasi bahsda yengmoq ma‘nosiga to‘g‘ri keladi. Yozuvchi qishloq hayotini tasvirlab, vohada keng tarqalgan xalq shevasining birikmalaridan mohirona foydalangan. “Orqayin” so‘zi Xorazm vohasiga xos dialektizm bo‘lib bamaylixotir, bemalol degan ma‘nolarni bildiradi. Parchada bamaylixotir ma‘nosida qo‘llangan. “Machalamoq” fe‘li tanni a‘zolarga bo‘laklamoq ma‘nosida ishlatilib tasviriylikni yana-da bo‘rttirib ifodalash maqsadida qo‘llangan.

Ma'lumki, badiiy adabiyotda xalq hayoti, nutqi, turmush tarzi, urf-odat va an'analari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham xalq hayotini aks ettiruvchi voqealarni tasvirlashda tilning tabiiyligi, jonliligi uchun shu mintaqa, hudud dialektizmlaridan foydalanish zarur. Ijodkorlar yaratgan personajlarning nutqiy tavsifi uchun ular ko'pincha dialektizmlardan foydalanadilar. Yozuvchi o'z davrining adabiy tili me'yorlari asosida qanchalik asarlarini yozmasin, baribir uning asarlarida mahalliy shevaga moyillik, mahalliy shevaning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Masalan,

Undan o'n to'rt metr narida yigirma-yigirma ikki yoshlardagi qiz dir-dir titrab turardi. Bir qarashdayoq bu qizning "bozor ko'rgan gachchi" ekanligini anglab olish qiyin emas edi.

"Gachchi"-echki. Xorazmda "bozor ko'rgan gachchi" frazemasini mavjud bo'lib, ko'proq erkaklar nutqida, asosan, salbiy ma'noda ishlatiladi. U hayoti davomida ko'plab qing'ir ishlar qilganlarga nisbatan qo'llaniladi. Vohada "bozor ko'rmagan gachchi" iborasi ham mavjud. U tajribasiz kishilarga nisbatan ishlatiladi. Dialekt so'zlar va iboralar muallif tomonidan, eng avvalo, personaj nutqini tavsiflash uchun kiritiladi. Ular ma'ruzachining ijtimoiy mavqeyini va uning ma'lum bir hududdan kelib chiqishini ko'rsatadi.[Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh., O'zbek dialektologiyasi, T., 1962.]

Bu ishonadigan gap emas edi. Ochig'ini aytganda, otini eshitgandanoq bolalar yig'idan to'xtab, kattalarning badaniga bir tiskinish tushadigan Poqqi mapiyga bu shaharda nafaqat qo'l ko'tarish, balki bu haqda o'ylash ham mumkin emas edi.

Yuqoridagi parchada "tiskinish" shevasi qo'llanilgan. U cho'chimoq, cho'chib tushmoq, qo'rqib qaltirash kabi ma'nolarni anglatadi. Qissada qo'rqib qaltirash ma'nosida ishlatilgan. Ijodkor asarlaridagi o'z g'oyalarini kitobxon ongiga to'la singdirishda va unga estetik zavq in'om etishda tilimiz xazinasida mavjud bo'lgan barcha leksik va grammatik vositalardan har tomonlama san'atkorona foydalangan. Shuning uchun badiiy asar tilini dialektizmlarsiz tasavvur qilish qiyin. Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan dialektizmlar o'quvchiga tasvirlanayotgan personaj xarakter-xususiyatini, uning qanday muhitda yashayotganligi, turmush tarzi, atrofdagilarga munosabati, nutqidagi o'ziga xos xususiyatlari, adabiy til qoidalarini bilish darajasi to'g'risida aniq tasavvur qilish imkonini beradi.

"Hoy bola! Unday qil, munday qil!" U bo'lsa yugurib ketaverar ekan bo'ynidagi ipini tebratib. To'xtovsiz chullik o'ynar ekan. Yuz yildan beri shunday ekan. Ming yildan beri shunday ekan.

Bolalar o'yinlarini bildiruvchi etnografizmlar ham o'zbek shevalari leksikasida salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Ular avloddan avlodga o'tib bizgacha yetib kelgan. Chullik-uzun tayoq bilan ikki tomoni yo'nilgan cho'plarni sakratib o'ynash. Shunga

o'xshash ko'pgina o'yin nomlarini ifodalovchi etnografizmlar juft so'z shaklida shakllangan bo'lib, bolalarda qarindosh-urug'chilik va mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'unlashtiradi.[Alimova Sh., Xorazm (qipchoq) shevasining leksik-grammatik xususiyatlari, U., 2015.]

Aytganlarimizdan xulosa qilish mumkinki, Shuhrat Matkarimov shevalarimizdan, asosan, quyidagi maqsadlarda foydalangan:

1. Haqiqiy hayotning badiiy rasmini yaratish.
2. Milliy kolorit yaratish.
3. Hududiy mansublikni ko'rsatish.
4. Individuallashtirish, tip terish.
5. Etnografik tasvir.
6. Ifodaning realligini ta'minlash.
7. Stilistik xilma-xillikni yaratish.
8. Milliy narsa va tushunchalarni ifodalash va boshqalar.

Shuhrat Matkarimov qipchoq sheva va qo'shimchalariga murojaat qilishi, jonli xalq tili unsurlariga alohida o'rin ajratilganligi, asarlarining til nuqtai nazaridan jonliligi badiiy fikrini ifodalashda dialektizmlarnikeng qo'llanganidan dalolat beradi. Bu bilan asar ta'sirchanligini oshiribgina qolmay, balki badiiy tilni boyitishga ham hissa qo'shgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000.
2. Alimova Sh., Xorazm (qipchoq) shevasining leksik-grammatik xususiyatlari, U., 2015.
3. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh., O'zbek dialektologiyasi, T., 1962.
4. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. "O'zbekiston ovozi", 2019.
5. Sharafiddinov O., Adabiyot tildan boshlanadi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1986.